УДК 373.2

MILLIY O‘YINLAR VOSITASIDA TARBIYALANUVCHILARDA DO‘STONA MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH

I.X. QURONOVA

Maqolada milliy xalq o‘yinlarining maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida tutgan o‘rni tadqiq etilgan. Xususan, milliy harakatli o‘yinlarning ayrim turlari misolida bolalarda do‘stlik, hamjihatlik va o‘zaro hurmat fazilatlarini shakllantirish masalasi ko‘rib chiqilgan. O‘yin jarayonida tarbiyachining boshqaruvchilik roli tahlil etilgan, har bir tarbiyalanuvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish zarurligiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, tarbiya, tarbiyalanuvchi, o‘yin, milliy harakatli o‘yinlar.*

В статье исследуется место и роль национальных подвижных игр в воспитании детей дошкольного возраста. В частности, на примере некоторых подвижных игр рассматриваются вопросы формирования у дошкольников таких важных социальных качеств характера, как коммуникабельность, дружелюбие и взаимоуважение, а также навыков действовать в коллективе, способности взаимодействовать со сверстниками. Также анализируется руководящая роль воспитателя в процессе игры, при которой особое внимание уделяется необходимости индивидуального подхода к каждому воспитаннику.

Ключевые слова: *дошкольное обучение, воспитание, воспитанник, игра, национальная подвижная игра.*

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat yuritayotgan har bir ta’lim maskanining bosh maqsadi kelajak avlodni bilimli, tarbiyali, salohiyatli qilib tarbiyalashdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha turdagi ta’lim maskanlari kabi maktabgacha ta’lim muassasalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Uyning poydevori mustahkam bo‘lsa, uzoq yillar xizmat qilgani kabi, ta’lim-tarbiya berishning maktabgacha bo‘lgan yosh davridan yo‘lga qo‘yilishi muhim hisoblanadi, va albatta, bu jarayon maktabgacha ta’lim muassasalari zimmasiga yuklanadi. Ta’lim maskanlarida ta’im-tarbiya jarayonini tashkil etishda fundamentallik tamoyilidan foydalaniladi, chunki yoshlikda o‘zlashtirilgan bilimlar keyinchalik to‘ldirilgan bilimlarga qaraganda sekin eskiradi.

Bilamizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayoni turli xil mashg‘ulotlarga va o‘yin faoliyatiga tayangan holda olib boriladi. O‘yin maktabgacha ta’lim tashkilotida olib boriladigan asosiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. O‘yin faoliyati bolalarning vaqtini band qilibgina qolmay, ularga ta’lim-tarbiya berishning eng oson va samarali usulidir. Mashg‘ulot jarayonini o‘yin tarzida tashkil qilish, avvalo, bolalar zerikib qolishining oldini oladi, ta'lim olishga yo‘naltirilgan o‘yin tarbiyachining maqsadini amalga oshirishda eng asosiy metod hisoblanadi. O‘yinlar bolalarga ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda ularda o‘zaro do‘stona munosabatlarni shakllantirish uchun ham qulaydir.

Do‘stlik va o‘rtoqlik munosabatlari yuksak ma'naviy fazilatlardan bo‘lib, u kishilik jamiyatida insonlarning o‘zaro munosabatga kirishishiga yordam beradi. Qadimdan o‘zbek xalqi kishilar o‘rtasidagi do‘stlik va o‘rtoqlik

tuyg‘ularini yuksak baholagan. Birdamlik, hamjihatlik mavzulariga bag‘ishlangan xalq og‘zaki ijodi namunalari yoshlar o‘rtasida do‘stlik va o‘rtoqlik tuyg‘ularini tarbiyalashga va bolalar o‘rtasida uni targ‘ib qilishga ko‘mak bo‘lib kelgan. Xalq og‘zaki ijodidan foydalanish pedagog xodimlarning eng ko‘p qo‘llaydigan vositalaridan biri bo‘lib, xalq pedagogikasidan asosiy o‘rin olgan. Milliy o‘yinlar bolalarning jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishiga asos bo‘ladi.

O‘yinlar ikkita katta turkumga bo‘lingan: ijodiy va qoidali o‘yinlar. Milliy o‘yinlar qoidali o‘yinlar turkumiga mansub bo‘lib, ular o‘z nomi bilan milliyligimiz singdirilgan va asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan o‘yin turlari hisoblanadi. Milliy o‘yinlarning ilk kurtaklari, albatta, uzoq o‘tmishga borib taqaladi. O‘zbek xalqi milliy o‘yinlarining yaratilishi xalqning yashash, mehnat qilish, o‘z-o‘zini himoya qilish kabi ehtiyojlari bilan bog‘liq. “Milliy o‘yinlarning uzoq umr ko‘rib kelayotganining o‘zi milliy o‘yinlarning qudratli tarbiyaviy kuchga ega ekanligidan dalolat beradi” [1. B. 146]. Ota-bobolarimiz o‘z farzandlarida eng yaxshi jismoniy va ma'naviy sifatlarni tarkib toptirish maqsadida milliy o‘yinlardan samarali foydalanib kelishgan. Milliy o‘yinlar orqali ularda, avvalo, jismoniy sifatlar: chaqqonlik, serharakatlik, o‘zini va jamoadoshlarini himoya qilish, sog‘lom va baquvvat bo‘lish, chiniqish; ma'naviy sifatlar: jamoada o‘zini tutish, tengdoshlarining xohish-istaklari va harakatlarini hurmat qilish hamda ular o‘rtasida do‘stona munosabatlarni rivojlantirish kabi fazilatlar shakllanadi.

B.B.Ma`murovning “Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi”, K.Rahimqulovning “Milliy harakatli o‘yinlar”, M.X.Tadjiyeva, S.I.Husanxodjayevalarning “Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalarida milliy harakatli o‘yinlar tarixi, turlari, ularning inson hayotida tutgan o‘rni, bolalarning yoshiga mos holda qo‘llash imkoniyatlari haqida bir qator mulohazalar keltirilgan. Mualliflar milliy o‘yinlarning o‘ynalish tartibi, qoidalari, pedagogik ahamiyatiga to‘xtalib o‘tganlar, biroq milliy o‘yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni shakllantirish yuzasidan ma'lumotlar atroflicha yoritilmagan. Ushbu maqolada ana shu jihatlarni yoritib berishni maqsad qildik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan” [2] ekanligini ta'kidlab, barkamol insonni tarbiyalash masalasiga alohida ahamiyat berib o‘tganlar.

Ma’lumki, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli yo‘lga qo‘yishdan iborat. Bu jarayonda esa bolalarni madaniy merosimiz bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u o‘zlikni anglash va ma’naviy-axloqiy kamolotga zamin bo‘ladi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim-tarbiya berishda milliy o‘yinlardan ham samarali foydalaniladi. Zero, milliy o‘yinlarda millatimizning yuksak qadriyatlari mujassamlashgandir.

Hozirda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarda epchillik, chaqqonlik, qo‘rqmaslik kabi sifatlar bilan birgalikda do‘stlik, o‘rtoqlik, hamjihatlik xislatlarini shakllantirish uchun milliy o‘yinlardan foydalanilmoqda. Bolalarda ilk yoshdan boshlab shakllangan chin do‘stlik tuyg‘ulari ularni butun umri davomida tark etmaydi. Chunki do‘stlikning

zamirida insonga xos bo‘lgan barcha samimiy xislatlar yotadi. Do‘stga sadoqat ruhida tarbiyalangan bola yurtiga ham, oilasiga ham sadoqatli inson bo‘lib kamolga etadi. Bolalarning ilk yoshida o‘yinchoqlar yordamida do‘stlik, o‘rtoqlik tuyg‘ulari uyg‘ona boshlasa, bog‘cha davriga kelib jamoada bu xislatlar asta-sekin shakllana boshlaydi. Bolalarga do‘stlikning qadr-qimmatini tushuntirishda o‘yin turlaridan samarali foydalanish ko‘zlangan maqsadga erishishda ko‘mak beradi. Har tomonlama yetuk inson bo‘lib yetishishda do‘stona munosabatlar muhim vosita hisoblanadi. Bu munosabatlarni rivojlantirishni, albatta, maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlamoq zarurdir. Milliy harakatli o‘yinlarni tashkil etishda ta’limning turli xil metodlaridan – tushuntirish, ko‘rsatish, tavsiya berish, bolalar harakatini ma’qullash, o‘yinga baho berish kabilardan foydalaniladi.

Ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan va hozirda ham foydalaniladigan milliy o‘yinlarimizdan “Oq terakmi, ko‘k terak?”, “Berkinmachoq”, “Sichqon-mushuk”, “Igna, ip va tuguncha”, “Quvlashmachoq”, “Arqon tortish”, “Elkada kurash”, “Eshak mindi” va boshqa o‘yinlarni misol qilib keltirish mumkin. Har bir o‘yin turi bolalarning yoshiga qarab belgilanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida asosan sodda kechadigan o‘yinlardan foydalaniladi. Bu kabi o‘yinlarning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

“Oq terakmi, ko‘k terak?” o‘yini. Bilamizki, o‘yinda bir-birlaridan 15–20 metr uzoqlikda saf tortib turgan bolalar jamoalarining bellashuvidan iborat bo‘ladi. Bir-birlariga qarama-qarshi tarafda turgan bolalar qo‘llarini mahkam ushlaydilar va raqib jamoasidan biri she’riy tarzda shunday deydilar:

Oq terakmi, ko‘k terak?
Bizdan sizga kim kerak?

Raqib jamoa esa “Bizga falonchi kerak” deb, bolalardan birining ismini aytib chorlaydi. Narigi tomondan chorlangan bola ushbu jamoa safini yorib o‘tishga harakat qilishi kerak bo‘ladi. Safni yorib o‘tgan o‘yinchi raqib jamoadan bir o‘yinchini o‘z jamoasini mustahkamlash va kuchlarini ko‘paytirish uchun olib ketadi. Agar aksincha bo‘lsa, ya'ni raqib tomonning safini yorib o‘ta olmasa, o‘zi ana shu raqib jamoada turib o‘z safdoshlariga qarshi o‘yinni davom ettirishiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun tanlangan bola jamoadoshlari ishonchini oqlash, o‘yinda mag‘lubiyatga uchrab o‘z safdoshlariga qarshi o‘ynamaslik uchun bor kuch-quvvati bilan harakat qiladi. O‘yin davomida bolalar, avvalo, do‘stlari oldida mas'uliyatli bo‘lishga, har qadamda bir-birini qo‘llab-quvvatlashga o‘rganadilar.

“Oq terakmi, ko‘k terak?” o‘yini uzoq davrlar mobaynida bir qancha o‘zgarishlarga uchragan. O‘yinning tartibi va qoidalari asosan saqlanib qolgan, lekin o‘yindagi she'rlar ishtirokchilariga mos tarzda o‘zgartirib kelingan. Ma'lumki, bunday o‘yinlar katta yoshdagilarga ham ma'qul kelgan, she'riy matnlarni ular o‘yin davomida o‘zlari ijod qilishgan. Ular o‘yinda, asosan, o‘xshatishlardan, maqtovlardan foydalanishgan, bunda qarshi tomondagi konkret o‘yinchini nazarda tutganlar. Masalan, birinchi safdagilar raqib jamoaga quyidagicha murojaat qilganlar:

Qamar, qamar, qamchini,
Qovurg`aning yanchini.
Oq terakmi, ko`k terak?
Bizdan sizga kim kerak?

Qarshi jamoa safidagi bolalar ham shu ohangda jo‘r bo‘lishib javob qaytarishgan:

– Kichkina Salim kerak!

Bu kabi she’riy aytishuvlar asosan maktab o‘quvchilari va kattalarga mo‘ljallangan. Bizningcha, xuddi shu tarzdagi aytishuvlardan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham bolalar yoshiga moslashtirgan holda foydalanish mumkin. Bu holda aytishuvning asosiy qolipi (Oq terakmi, ko‘k terak? Bizdan sizga kim

kerak? ... ... kerak) saqlanadi va u konkret guruhdagi bolalarga mos mazmun bilan to‘ldiriladi. Masalan, bizningcha, aytishuvni mana bu tarzda moslashtirish mumkin:

Oq terakmi, ko`k terak?
Bizdan sizga kim kerak?
Guruhda eng mehnatkash
Do‘stimiz Nortoy kerak.

O‘ynab-o‘ynab tolmaymiz.
Oq terakmi, ko`k terak?
Bizdan sizga kim kerak?
Bizga har ishda mohir
Chaqqon Zumradoy kerak.

Oq terakmi, ko`k terak?
Bizdan sizga kim kerak?
Bizga har ishga doim
Yordam berar muloyim,
Beminnatdir mehnati,
Ishchan Oydinoy kerak.

Bog‘cha-bog‘cha bog‘chamiz
Chiroylidir xonamiz.
Oq terakmi, ko`k terak?
Bizdan sizga kim kerak?
Dono, oqil yetakchimiz,
Bir so‘zli Mardon kerak.

Fikrimizcha, guruh murabbiylari uchun o‘z tarbiyalanuvchilarini nazarda tutgan holda bu kabi o‘zgartirishlarni kiritish qiyinchilik tug‘dirmasa kerak. O‘yin jarayonida yuqorida keltirilgan chiroyli o‘xshatishlardan foydalanish va bolalarni maqtash, avvalo, ularda milliy o‘yinlarimizga nisbatan qiziqish va faxr tuyg‘usini uyg‘otadi. Shuningdek, ular o‘rtasida do‘stlik munosabatlari shakllanishiga, o‘zini va jamoadoshlarini hurmat qilishni o‘rganishga yordam beradi.

“Oq terakmi, ko‘k terak?” o‘yini munosabatga kirisha olmayotgan bolalarni yarashtirish va ular o‘rtasida do‘stona munosabatlarni shakllantirishda juda qo‘l keladi. Tarbiyachi o‘rtalarida nizoli vaziyatlar bo‘lib turadigan bolalarni bir jamoa qilib tayinlashi va ularni g‘alaba uchun birgalikda kurashishga undashi, kuchlarni tenglashtirishi, yutqazmaslik uchun sheriklari va jamoadoshlari bilan birlikda harakat qilishlari ularni g‘alabaga olib boruvchi yo‘l ekanligi haqida tushuncha berishi kerak. Bolalarning bir maqsadga erishish yo‘lida harakatlanishi, g‘alabaga erishish ishtiyoqida bir-birini qo‘llab-quvvatlashi natijasida ular o‘rtasida sekin-asta do‘stlik munosabatlari uyg‘ona boshlaydi. Ushbu milliy o‘yinning tarbiyachi tomonidan ochiq havoda qayta-qayta tashkil etilishi bolalar o‘rtasida do‘stlik, o‘rtoqlik munosabatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

“Nina, ip va tuguncha” milliy o‘yini. “O‘yin boshlanishida bolalar qo‘l ushlashib, aylana hosil qilib turadilar. Uchta ishtirokchi aylanadan tashqarida ketma-ket turadi. Ulardan birinchisi “ninacha”, ikkinchisi “ip” va uchinchisi “tuguncha” rollarini bajarish uchun tayinlanadi. “Nina” har tomonda yugurib yuradi. “Ip” bilan “tuguncha” ham uning ketidan ergashib yurishadi. Agar ip chigallashib (boshqa tomonga ketib) qolsa yoki uni tuguncha ushlasa, o‘yin qaytadan boshlanadi va yangi “nina”, “ip” hamda “tuguncha” tayinlanadi. O‘yinchilar qo‘llarini ko‘tarib, “nina”, “ip” va “tuguncha”ga yo‘l ochib turishlari lozim” [3. B. 106]. O‘yinning borishida “ninacha”, “ip” va “tuguncha” vazifalarini bajarayotgan bolalardan birdamlikda tartibli harakat qilish talab etiladi. Chunki o‘yin jarayonida uchovlarining harakatlari bir-biriga bog‘liqdir. Birining noto‘g‘ri harakati boshqa ishtirokchining ham o‘yinni tark etishiga olib keladi. Demak, uchala bola ham o‘zaro hamkorlikda, do‘stona munosabatda o‘yinda harakatlansalar g‘oliblikka erishadilar.

“Nina, ip va tuguncha” milliy o‘yini bolalarning yangi do‘stlar orttirishi va o‘zini o‘zi namoyon qilishida ahamiyatli hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlar haqida so‘z borgan ko‘plab manbalarda “Qopqon” o‘yiniga to‘xtab o‘tilgan. Bu o‘yin o‘zining soddaligi, turli yosh-

dagi bolalarga mos tarzda o‘zgartirish imkoniyatiga ega ekanligi bilan e’tiborga loyiq. Manbalardagi o‘yin tavsifini umumlashtirgan holda qayd etib o‘tamiz. “Qopqon” o‘yini ikki guruhga bo‘linib o‘ynaladi. Boshlang‘ich holat: birinchi guruhdagi bolalar “qopqon” tashkil qilishadi – qo‘l ushlashib aylana bo‘ylab turishadi. Ikkinchi guruhdagi bolalar esa “sichqonlar” bo‘lib, aylanadan tashqarida joylashadilar. Qopqondagilar qo‘l ushlashgan holda quyidagi kabi so‘zlarni aytgancha aylana bo‘ylab harakatlanadilar:

Voy qurg‘urlar, bu sichqonlar
Jonga tegdi, u beorlar
Nima ko‘rsa shuni yeydi,
Hamma yoqni ship-shiy qildi.
Shoshmang, sizlar, badnafs zotlar,
Qo‘lga tushmayin qolmassiz.
Uyangizga qo‘ydik qopqon,
hammangizni tez ushlarmiz! [4. B. 29].

Qopqondagilar aytimning oxirgi so‘zlarini aytib bo‘liboq turgan joylarida to‘xtaydilar (“qotadilar”) va qo‘llarini ushlagan holda yuqoriga ko‘taradilar. Sichqonlar qopqon orasidan, ya’ni yuqori ko‘tarilgan qo‘llar orasidan aylana ichiga yugurib kirib-chiqa boshlaydilar. Tarbiyachi “Qopqon yopildi!” degan ishorani berishi bilan qopqondagilar cho‘nqayib o‘tirib, qo‘llarini pastga tushiradilar. Bu harakat bilan qopqon yopilgan bo‘ladi. Aylana ichidan chiqolmay qolgan sichqonlar “qopqonga tushgan”, tutilgan hisoblanadi. O‘yin sichqonlar guruhining barcha a’zolari qopqonga tushguniga qadar davom ettiriladi. Hamma sichqonlar tutilgach, guruhlar o‘rin almashadi, ya’ni endi “sichqonlar” “qopqon”, “qopqon”dagilar esa “sichqon bo‘lib o‘ynaydilar [3. B. 100].

Yuqorida “Qopqon” o‘yinining turli yoshlarga mos shaklda o‘zgartirish imkoniyati borligini aytib o‘tdik. Biz yuqorida keltirgan aytim 1963 yilda nashr etilgan kitobdan olingan bo‘lib, unda “Qopqon” o‘yini maktab o‘quvchilariga tavsiya etilgan. Tavsifdan esa o‘yin harakatlarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham, bolalar bog‘chalarining katta guruh tarbiyalanuvchilari ham bajarishi mumkinligi ko‘rinadi. Shuning uchun aytimni 5–7 yoshli bolalarga moslashtirgan holda (buning uchun shoirlar bilan hamkorlik qilish foydali bo‘ladi) o‘yindan faol foydalanishni tavsiya etamiz. Xususan, o‘yin tarbiyalanuvchilarda, ayniqsa, “qopqon” guruhidagi bolalarda jamoaviylik, do‘stonalik hissini mustahkamlash va rivojlantirirshda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Milliy o‘yinlarimizning o‘g‘il bolalar va qiz bolalar uchun moslangan turlari borligi bugungi kunda juda muhim ahamiyatga ega. Chunki ular milliy qadriyatlarni saqlab qolishda, yigitlarda mardonalik, qizlarimizda ayolga xos sifatlarni shakllantirishda muhimdir. “Mehmonmisiz” o‘yini qizlar uchun xoslangan, unda faqat qiz bolalarning ishtirok etishlari, bizningcha, yozilmagan qoida bo‘lishi kerak. O‘yinning borishi, qoidalari sodda. O‘yin ikki kishi yoki guruh-guruh bo‘lib o‘ynaladi. O‘yin davomida muloqot she’riy yo‘lda olib borilgani uchun navbat qur’a tashlash orqali aniqlanadi. O‘yinchilardan biri ikkala qo‘lini kaftlarini ochgan holda sherigi tomon uzatib turadi. Ikkinchi o‘yinchi esa, masalan, manbalarda keltiriladigan mana bu aytimni aytishi kerak:

Juba-Juba, sochi mayda,
Ana to‘da. Qo‘li belida.
Tongda lola, Voy qo‘lim-ey,
Bir qiz bola. Voy belim-ey.
Ko‘chaga chiqing, Osmonimiz, jonimiz,
Bir qiz kelyapti. Bugun bizga mehmonmisiz? [3. B. 123].

Shu aytimni tugatgan zahoti o‘yinchi chaqqonlik bilan dugonasining ochiq turgan kaftlariga o‘z kaftlarini urib qochadi. Agar birinchi o‘yinchi uning qo‘lini tutib ola bilsa yoki o‘rtog‘ini quvlab belgilangan marragacha yetib olsa, o‘yin navbati, ya’ni endi she’r aytib qochish gali unga o‘tadi. O‘yin shu tariqa bir necha bor qaytarilishi mumkin. O‘yin nihoyasida chaqqonlik ko‘rsatgan, tutqich bermagan

o‘yinchi g‘olib deb topiladi. Bizningcha, tarbiyalanuvchilarda jamoaviylik hissini tarbiyalash, do‘stona munosabatlarni mustahkamlash uchun o‘yinning guruhlarga bo‘linib o‘ynash maqsadga muvofiqdir. O‘yinga bir qadar ijodiy yondashish ham juda muhim. Bunda avvalo aytimlarni yangilash, ularni 5–7 yoshli bolalar so‘z boyligi, tasavvur imkoniyatlarini, yodlab qolish va talaffuz qilishning oson bo‘lishi kabi jihatlarni ko‘zda tutgan holda yangilash zarur. Yuqoridagicha tavsifdagi harakatlarni asos qilib olgan holda o‘yinga ayrim yangi harakatlar qo‘shish, o‘yin ssenariysini yangilash yaxshi samara berishi shubhasizdir. Bunda o‘yin harakatlari va ssenariysi bola uyida guvoh bo‘ladigan mehmon kutish, mehmonlar bilan muomala qilish, qo‘lga suv berish, dasturxon tuzash kabi elementlar bilan boyitilsa, yana ham yaxshi. Bu holda o‘yinning tarbiyaviy ahamiyati, qiziqarliligi ham sezilarli darajada ortadi, ikkinchi tomondan, uni konkret pedagogik maqsadlarga yo‘naltirilgan turli variantlarini ishlab chiqish va tatbiq etish mumkin bo‘ladi.

Ayon bo‘lyaptiki, yuqorida ko‘rganimiz kabi jamoaviy o‘yinlar bolalarni jamoada harakat qilishga o‘rgatadi, ularda jamoaviylik hissini paydo qiladi, rivojlantiradi. Shuningdek, bunday o‘yinlar davomida xushmuomala bo‘lish, o‘yin qoidalariga, tartib-intizomga bo‘ysunish, o‘zaro hamjihat bo‘lib do‘stona harakat qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Bolalar o‘rtoqlarining yutuqlariga quvonib, mag‘lubiyatlari uchun birgalikda kuyinishga o‘rganadi, o‘yin davomidagi do‘stona munosabatlar o‘yindan keyin ham saqlanadi, ularda bir-birini qo‘llab-quvvatlash, kichiklarga g‘amxo‘r bo‘lish sifatlari kurtak yozadi. Bunday o‘yinlar vositasida bolalarda nafaqat o‘zlarining shaxsiy yutuqlari, balki jamoasining muvaffaqiyati uchun ham intilish sifati tarbiyalanadi.

Jamoaviy o‘yinlarni qiziqarli va tartibli tashkil etish va boshqarishda tarbiyachi rahbar sifatida ishtirok etadi. Mutaxassislar rahbar bu ishni amalga oshirishda quyidagilarni e'tiborda tutishi lozimligi, aniqrog‘i, uning zimmasidagi vazifalar quyidagilardan iborat ekanini ta'kidlaydilar: “1) shug‘ullanuvchilarning salomatligini mustahkamlash, ularni to‘g‘ri jismoniy rivojlanishiga yordam beradi; 2) Hayotiy zarur bo‘lgan harakat malakalarini egallashga yordam beradi; 3) Bolalarda zarur bo‘lgan odob-axloq irodaviy va jismoniy sifatlarini tarbiyalash; 4) O‘yin bilan mustaqil ravishda muntazam shug‘ullanish odatini va bolalarda tashkilotchilik malakalarini singdirish” [5]. Ko‘rib turganimizdek, rahbar, ya'ni tarbiyachining zimmasidagi vazifalar nihoyatda mas'uliyatli. Zero, bu vazifalarni uddalash uchun, avvalo, bolalarning yoshi va salomatligini hisobga olgan holda o‘yin turini tanlay olish, uni aniq pedagogik maqsadlarga yo‘naltirilgan holda tashkil qila bilish talab qilinadi. Ya'ni, bir so‘z bilan aytganda, o‘yinga shunchaki o‘yin deb emas, murg‘aq bolalarda g‘oyat muhim insoniy sifatlarni shakllantirish vositasi sifatida qarashi, o‘yindan tashqarida turgan holda uni tarbiyaviy maqsadga yo‘naltirib, boshqarib borishi taqozo etiladi.

Har bir o‘yinni boshlashdan oldin tarbiyachi o‘yinning qoidalarini bolalarga tushuntirib berishi, o‘yin vaqtida qoidaga amal qilinishini ta’minlashi, hakamlik qilganida adolatli bo‘lishi zarur. O‘yinda qoida qayta-qayta buzilaversa, qoidalarni bolalar harakatlariga moslagan tarzda o‘zgartirish maqsadga muvofiqdir. Chunki har bir bolaning o‘sish darajasi turlicha bo‘ladi. Jismoniy yoki aqliy rivojlanishda tengdoshlariga nisbatan ortda qolayotgan bolalarga yengillik yaratish ularning qiynalmasligi va jamoadoshlaridan ortda qolib ketmasligini ta’minlaydi. Ushbu vaziyatda to‘g‘ri yo‘l tutish, albatta, tarbiyachining kasbiy mahoratini ko‘rsatib beradi. O‘yinda har bir bolaning fe’l-atvori, rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda rollarni taqsimlab berish ham tarbiyachining mahoratiga bog‘liq. Tarbiyachi bolalar jamoa yutug‘iga erishishi uchun so‘zlari orqali ularga yo‘nalish berib turishi lozim. Masalan, “O‘rtog‘ingni qutqar!”, “Ortda qolayotganlarga

yordam ber!", "Birgalikda harakat qil, bo'lmasa jamoang mag'lub bo'ladi!" kabilarni bolalarga eslatib turish foydalidir. Ba'zi hollarda bolalar orasida nisbatan asabiyroq, jahli tez, so'zini o'tkazishga harakat qiladigan bolalar ham uchrab turadi. Ko'p hollarda bunday bolalar jamoasi mag'lubiyatga uchraydi va jamoada birdamlik yuzaga kelmaydi. Bu holatda tarbiyachi bu kabi qatnashchilarning harakatlari no'to'g'ri ekanligini va jamoadoshlarining ham harakatlarini hurmat qilishi, ularga mos tarzda o'ynash lozimligini, jamoada ham uning o'rni muhimligini tushuntirishi, maslahat berishi, shirinso'zlik va ochiq fe'llik bilan xatosini anglab yetishiga yordam berishi talab etiladi.

Xulosa qilib aytaganda, maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarida do'stona munosabatlarni shakllantirishda milliy o'yinlardan foydalanish hozirgi ta'lim-tarbiya tizimida bola shaxsini kamol toptirishda samarali usul hisoblanmoqda. Zero, do'stlik, o'rtoqlik, hamkorlik, hamdardlik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat kabi kabi fazilatlarning ilk bolalik davrlaridanoq shakllanishi juda muhimdir. Shunga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim va tarbiya jarayonida milliy o'yinlar vositasida do'stona munosabatlarni shakllantirish usullarini ishlab chiqish va keng tatbiq etish bugungi kunda dolzarb ilmiy-pedagogik ahmiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. *Tadjiyeva M.X., Xusanxodjayeva S.I.* Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2017. – 244 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusiga bag'ishlangan anjumanda so'zlagan nutqi. [Интернет манба]. URL: https://www.standart.uz/ru/news/view?id=963. (Мурожаат этилган сана: 16.02.2021)

3. *Rahimqulov K.* Milliy harakatli o'yinlar. – Toshkent: "Tafakkur-bo'stoni", 2012. – 142 b.

4. *Тожибоев Н., Усмонхўжаев Т.* Ҳаракатли ўйинлар. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1963. – 148 б.

5. *Пардаев Б.П.* Ҳаракатли ўйинларни болаларнинг ёшига мослаган ҳолда танлаш. [Интернет манба]. URL: // https://fanvatalim.uz/edition-blogs/26 (Мурожаат этилган сана: 03.02.2021)

6. *Ma`murov B.B.* Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014. – 227 b.

7. *Qurbonova M.A, Qosimova M.U.* Milliy va harakatli o'yinlar. – Toshkent: O'zDJTI nashriyoti, 2009. – 67 bet.

8. *Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М.* Педагогик технологияларнинг тадбиқий асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – 266 б.

9. *Usmanxodjayev T.S, Pulatov A.A, Tadjibayev S.S, Pulatov F.A.* Sport va harakatli o'yinlar (Milliy harakatli o'yinlar). Darslik. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi, 2018. – 330 b.

10. *Sodiqova Sh.* Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2013. – 290 b.

11. *Qodirova F.R,* Toshpo'latova Sh.Q, Kayumova N.M, A'zamova M.N Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 688 b.

12. *Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S.* Umumiy pedagogika. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b.

FORMING FRIENDLY RELATIONS IN PUPILS THROUGH NATIONAL GAMES

I.X. Kuranova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research. 2021. 2(54). 65–73.

[1]Andijan State University, Andizhan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: preschool education, upbringing, foster, game, national movement games.

This article discusses the role of preschool education in children's lives, which is developing year by year and improving its educational activities. As you know, one of the main activities of children in preschool education organization is game. It is a major part of childhood life. After all, whether or not any child attends in preschool education organization, they spend their day activities playing a variety of games. We know that there are individual and team forms of games. In preschool education organizations, educators often use team games to keep students active. Because the child makes friends in the team, learns to respect others and behave. A child brought up in the spirit of loyalty to a friend will grow up to be a person loyal to his country and, of course, his family. A true true friend shows the right way and tells the truth in any situation. Man knows through his friend who he is and how he is formed. A person who knows his faults and shortcomings and explains that these are harmful in his friend's life is his true friend. Raising children from pre-school age is an important process in achieving such qualities of true friendship. In carrying out such tasks, it is advisable to educate children from preschool age with the purposeful use of national games in team forms.

National games are part of the folklore and have been passed down to us from ancient times by our ancestors, grandparents and great-grandparents. In the formation of friendly relations in children on the basis of national games, the educator uses explanations, visual aids, giving recommendations, approving the actions of children. National games are determined by the age of the children. In fact, there are many types of national games. It is rare that it is specifically designed for children. Because these games have been played by adults in their time. Given the simplicity and ease of the rules of the game, games such as "White poplar, blue poplar?", "Nina, thread and knot", "Trap", "Are you a guest" were used to form friendly relations in children. Poetic utterances uttered during the performance of the game, words of praise dedicated to their teammates cause the children to get closer to each other. During the game, qualities are formed, such as helping his teammates, fighting together for victory, putting his friend's actions above his own. The tutor's guidance in making the game fun and orderly is invaluable. When a leader teaches children to be united and to sacrifice themselves for the team and to respect their teammates, a sense of friendship can only be developed among them if the game is conducted fairly.

References:

1. Tadjieva, M.X., Xusanxodjaeva, S.I. (2017) *Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi* [Theory and methods of physical education of preschool children]. Tashkent: “Iqtisod-moliya”.

2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 15-iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusiga bag‘ishlangan anjumanda so‘zlagan nutqi [Speech by President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoev at a conference on June 15 in Tashkent on ‘Ensuring social stability, preserving the purity of our sacred religion - the need of the hour’]. [Online]. URL: https://www.standart.uz/ru/news/view?id=963. (Date of access: 16.02.2021)

3. Rakhimkulov, K. (2012) *Milliy harakatli o‘yinlar* [National action games]. Tashkent: “Tafakkur-bo‘stoni”.

4. Tojiboev, H., Usmonxo‘jaev, T. (1963) *Harakatli o‘yinlar* [Moving games]. Tashkent: O‘rta va oliy maktab.

5. Pardaev, B.P. Harakatli o‘yinlarni bolalarning yoshiga moslagan holda tanlash [Choose action games that are age-appropriate for children]. [Online]. URL: https://fanvatalim.uz/edition-blogs/26 (Date of access: 03.02.2021)

6. Ma`murov, B.B. (2014) *Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi* [Theory and methods of physical education in child development]. Tashkent: Turon Zamin Ziyo.

7. Kurbanova, M.A., Kasimova, M.U. (2009) *Milliy va harakatli o‘yinlar* [National and action games].Tashkent: O‘zDJTI nashriyoti.

8. Tolipov, O.Q., Usmonboeva, M. (2006) *Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari* [Applied bases of pedagogical technologies]. Tashkent: Fan.

9. Usmanxodjaev, T.S. (et.al.) (2018) *Sport va harakatli o‘yinlar* (Milliy harakatli o‘yinlar) Darslik [Sports and Action Games (National Action Games). Textbook]. Tashkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi.

10. Sodikova, Sh. (2013) *Maktabgacha pedagogika* [Preschool pedagogy]. Tashkent: “Tafakkur bo‘stoni”.

11. Kadyrova, F.R. (et.al.) (2019) *Maktabgacha pedagogika* [Preschool pedagogy]. Tashkent: Tafakkur.

12. Mavlonova, R.A. (et.al.) (2018) *Umumiy pedagogika* [General pedagogy]. Tashkent: Fan va texnologiya.

Muallif haqida ma’lumot:

Quronova Ismigul Xolmurod qizi – Andijon davlat universiteti Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi. E-mail: ismigul.kuranova@mail.ru